

UDK: 334.01(025)

OLIV TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Qahhorov Otabek Siddiqovich,
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar
instituti, ilmiy ishlar, innovatsiyalar va xalqaro
aloqalar bo'yicha direktor o'rinbosari, iqtisodiyot
fanlari doktori (DSc), professor*
E-mail: otabek_kakhkhorov@mail.ru

Muxtarov Shavkat Kadirovich,
*BuxDU, Iqtisodiyot kafedrasida tayanch
doktoranti (PhD)*
E-mail: muxtarov.sh67@gmail.com

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash, inson kapitali nazariyasi asosida har doim ta'limga qaratilgan investitsiyalarning yuqori samaradorligini baholash, ta'lim xarajatlarining mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalining umumiy milliy zahirasi va uning o'sish sur'ati, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiyalarga davlatning rivojlanish strategiyasini muvofiqlashtirish kabi vazifalar belgilangan hamda yechimlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ilg'or standartlar, oliy ta'lim, xalqaro tajriba, inson kapitali, bozor yondashuvi, investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, strategiya, axborot inqilobi, globallashtirish, oliy ta'lim muassasasi, iqtisodiy nazariya, ijtimoiy soha, mehnat bozori.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются и предоставляется научные решения вопросы поэтапного перевода учебного процесса в высших учебных заведениях на кредитно-модульную систему, внедрения передовых стандартов высшего образования на основе международного опыта, включения теоретических знаний в образовательных программы от образования до ориентирование на формирование практических навыков, поднимающего содержание высшего образования на новый качественный уровень, вносящего достойный вклад в устойчивое развитие социальной сферы и отраслей экономики, имеющего свое место на рынке труда наладить систему подготовки высококвалифицированных кадров, обеспечить академическую независимость высших учебных заведений, оценить высокую эффективность инвестиций направленных на образование на основе теории человеческого капитала, повысить производительность труда, расходы на образование, общий национальный резерв человеческого капитала и темпы его прироста, согласовывать по стратегии развития государства инвестиционным этапом экономического развития страны.

Ключевые слова: передовые стандарты, высшее образование, международный опыт, человеческий капитал, рыночный подход, инвестиции, экономическое развитие, стратегия, информационная революция, глобализация, вуз, экономическая теория, социальная сфера, рынок труда.

ABSTRACT: This article analyzes and provides scientific solutions to the issues of step-by-step transfer of the educational process in higher education institutions to a credit-modular system, the introduction of advanced standards of higher education based on international experience, the inclusion of theoretical knowledge in educational programs from education to orientation to the formation of practical skills, raising the content of higher education to a new qualitative level, making a worthy contribution in the sustainable development of the social sphere and economic sectors, having its place in the labor market, to establish a system of training highly qualified personnel, to ensure the academic independence of higher education institutions, to evaluate the high efficiency of investments aimed at education based on the theory of human capital, to increase labor productivity, education costs, the total national reserve of human capital and its growth rates, to coordinate the investment stage of the economic development of the country according to the development strategy of the state.

Key words: advanced standards, higher education, international experience, human capital, market approach, investment, economic development, strategy, information revolution, globalization, university, economic theory, social sphere, labor market.

KIRISH

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi doirasida oʻtgan davr mobaynida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambagʻallikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish oʻrinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va taʼlim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan taʼminlash sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarildi. Soʻnggi besh yillik islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi Oʻzbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-maʼrifiy asoslari yaratildi [1].

“2022-2026-yillar uchun moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” boʻlimida oliy taʼlim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va taʼlim sifatini oshirish, 2022-yilda yoshlarni oliy taʼlim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish kabi vazifalar belgilab berilgan [2]. Shuningdek, “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi” ga muvofiq, respublikadagi kamida 10 ta oliy taʼlim muassasasini xalqaro eʼtirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta oʻrindagi oliy taʼlim muassasalari roʻyxatiga, shu jumladan Oʻzbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta oʻrindagi oliy taʼlim muassasalari roʻyxatiga kiritish, oliy taʼlim muassasalarida oʻquv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga oʻtkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy taʼlimning ilgʻor standartlarini joriy etish, jumladan oʻquv dasturlarida nazariy bilim olishga yoʻnaltirilgan taʼlimdan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish, oliy taʼlim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qoʻshadigan, mehnat bozorida oʻz oʻrnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish, oliy taʼlim muassasalarining akademik mustaqilligini taʼminlash kabi vazifalarning ham belgilab berilishi kelgusida taʼlim tizimining ravnaq topishiga asosiy huquqiy baza boʻladi [3].

Inson kapitali asosan taʼlim va oʻqitish orqali yaratiladi va rivojlantiriladi. Ularning yordami bilan inson faoliyati samaradorligi oshadi, bu esa oʻz navbatida, uning ish haqi miqdorining oshishiga bevosita taʼsir qiladi. Hukumatlar, individual ishchilar va ularning ish beruvchilari taʼlim hamda kasbiy tayyorgarlikka (bilim va koʻnikmalarni oshirish uchun) inson kapitaliga pul va vaqt sarflaydilar [4]. Inson kapitaliga bunday sarmoyalar, boshqa investitsiyalar kabi maʼlum bir qurbonliklarni talab qiladi

va odamlar kelajakda yanada yuqori daromad ko'inishida mukofot olishni kutgan holda harakat qiladilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

A.Henry fikriga ko'ra, samarali strategiya menejerlarga "tashqi muhitdagi imkoniyatlardan foydalanish va tahdidlarni cheklash" uchun tashkilotning mavjud resurslari va imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi [5].

E.Wagner va J.M.Ferreira tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasasida raqobatdosh ustunliklarni aniqlash jarayonini tushuntiruvchi kontseptual model taklif qilingan[6]. Unda ta'lim muassasalarini boshqaruvchi tashkilotlarning raqobatdosh ustunlikni yaratadigan ichki va tashqi omillar aniqlangan. Ushbu tadqiqotning asosiy hissasi biznes strategiyasi sohasidagi uchta nazariy yondashuvni oliy ta'lim tizimiga moslashtirilishidir. Asosiy ilmiy yangiligi esa OTM hudud va manfaatdor tomonlar o'rtasida kuchliroq aloqaga ega bo'lgandagina raqobatda ustunlik qilishi aniqlangan.

Tadbirkorlik omillari bu tadbirkorlik faoliyatida bevosita ishtirok etuvchi resurslar hamda unga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchlardir. Ulardan asosiysi inson omili hisoblanadi.

P.Tabatoni va A.Barblan ta'kidlaganidek, strategik menejmentning asosiy maqsadi tashkilotni rivojlantirishda ishtirok etayotgan odamlarga rahbarlik qilish va ularga tashkilotning imidjini o'stirish uchun diqqatini jamlashga yordam berish, uning yangi muhitdagi o'rnini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashdan iborat [7]. Strategik menejment mijozlar va mahsulotlar, turli resurslar, shu jumladan, moliyaviy aktivlar, tashkiliy tizimlar va texnologiyalar, risklar va boshqalar to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos yaratadi. Bundan tashqari, talabalarni jalb qilish va saqlab qolish bo'yicha OTMlari o'rtasidagi raqobatning kuchayishi ham ta'lim menejerlarini o'z strategiyasini qayta ko'rib chiqishlarini taqozo qiladi[8].

Ch.U.Adamkulova OTM faoliyatini boshqarish tizimining kontseptual asoslarini o'quv ta'lim faoliyati, ilmiy faoliyat, metodologik faoliyat, ma'muriy-xo'jalik faoliyatiga tegishli komponentlar bilan to'ldirish zarurligini ta'kidlaydi[9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning oliy ta'lim muassasalari faoliyati boshqaruv samaradorligini baholashga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlar tahlilida statistik guruhlash, solishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv, adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, turli umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy mamlakatlarda tashkilot moliyaviy holatini tahlil qilishda likvidlik ko'rsatkichlari, majburiyatlarning ta'minlanganligi koeffitsiyentlari, to'lovga qobilik koeffitsiyentlari, rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishni va tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslash kabi iqtisodiy diagnostikani amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlari uchun talabalar bilan ishlash, o'qitish va baholash tizimini takomillashtirish, sifat jarayonlari, natija va xulosalarini tahlil qilish kabi amaliy maslahatlarga boy bo'lgan tadqiqotlar olib borilgan. Oliy ta'limda sifatni boshqarish va uni kafolatlash bir-biri bilan bog'liq jarayon ekanligi ta'kidlangan [10].

MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalar salohiyatining iqtisodiy diagnostikasi majmualiy tadqiqot vositasi sifatida boshqaruv qarorlarini tayyorlash va ularning bajarish ustidan nazoratni tashkil etish uchun axborot beradi.

Iqtisodiy diagnostika taqqoslashga asoslangan bo'lib, tahlildagi kabi birlamchi axborotlardan foydalanadi va iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan [11]. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini diagnostika qilish shakli majmualiy o'rganishni, ya'ni iqtisodiy salohiyatning barcha tarkibiy qismlarini bir vaqtda o'rganishni ifodalaydi.

O'zbekistonda mehnat va oliy ta'lim xizmatlar bozorlarini modellashtirish xorij tajribasi, oliy o'quv yurtlari inson kapitalini boshqarishda baholash masalalari, ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar, oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish yo'llari va boshqa oliy ta'limni boshqarish masalalariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy ishlarning aksariyat qismi oliy ta'lim marketingi va menejmentini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi va mehnat bozori bilan uzviy bog'liqligi tadqiq etilgan [12].

Biroq, oliy ta'lim muassasalarida marketing tadqiqotlarining olib borilishi iqtisodiy diagnostikasining ma'lum bir tizimli tahlil elementlarini o'z ichiga olsa-da, ular iqtisodiy diagnostika tamoyillariga ega emas. Chunki iqtisodiy diagnostika xo'jalik faoliyatidagi muammolar xususiyatini aniqlash usuli hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar tashkilot ro'y beradigan turli jarayonlarning me'yoriy dinamikasidan chetga chiqishlar va tegishli ko'rsatkichlarning o'zgarish tezligi bilan ifodalanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasasining iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritish usullarini o'rganish va uning holatini baholash kerak bo'ladi. Shundan so'ng oliy ta'lim muassasasining rivojlanish muammolari va ularning yechimlari uchun istiqbolli yo'nalishlar aniqlanadi [13].

Ayni paytda boshqaruv qarorlarini tahliliy qo'llab-quvvatlash va ushbu jarayonda iqtisodiy diagnostikaning vazifalarini belgilash, oliy ta'lim muassasasining boshqaruv qarorlari va uning samaradorligini baholashda iqtisodiy-diagnostik modellarni ishlab chiqish kabi muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Inson kapitalining umumiy milliy zaxirasi va uning o'sish sur'ati mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda sur'ati uchun juda muhimdir, chunki inson kapitali mamlakat iqtisodiyotining texnik yangiliklarni idrok etish va undan foydalanish qobiliyatini belgilaydi.

Yuqori ma'lumotli aholi mamlakat taraqqiyotini tezlashtirishga yordam berishiga ishongan holda, davlat ta'limga mablag'lar sarflaydi. Ish beruvchilar o'z xodimlariga qilgan xarajatlari qaytishini va ishchilarning yuqori samaradorligi tufayli qo'shimcha daromad olishini bilgan holda ularni o'qitish hamda qayta tayyorlash uchun mablag' tikishga rozi bo'ladilar. Hozirgi kunda insonlarning o'zlari ham ko'pincha ta'lim olish uchun nafaqat vaqtni, balki pulni ham sarflashga tayyorlar (shartnoma asosida), chunki ko'p mamlakatlarda ko'proq ma'lumotli, yuqori malakali ishchilar nisbatan yuqori daromad olishi barchaga ma'lum. Ammo ta'limning iqtisodiy ta'siri har doim ham bir xil emas. Ushbu ta'sirning pasayishiga olib keluvchi omillar ko'p (1-jadval).

1-jadval

Ta'lim muammosining iqtisodiy ta'siri va izohi¹

MUAMMO	IZOH
Ta'lim sifati past bo'lishi yoki o'qish davomida olingan bilim va ko'nikmalarning bozor talablariga javob bermasligi.	Bu shuni anglatadiki, inson kapitali past sifatga ega bo'ladi, kam daromad oladi, natijada jamiyat va uning alohida a'zolari kutganidek inson kapitaliga investitsiyalar yetarli darajada samarali bo'lmaydi.
Mamlakatda iqtisodiy o'sishning past sur'atlarida to'plangan inson kapitaliga talabning kamligi.	Shuning uchun ishchilarning inson kapitali (ma'lumot va ko'nikmalar) talab qilinmaydi va yuqori qiymatga ega bo'lgan ish haqini olmaydi.
Iqtisodiyot boshqaruvi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xorijiy davlatlarda ma'lumoti va kasbi yuqori darajada bo'lgan ishchilar oylik maoshidagi tafovut, nisbatan sifatli mehnatni rag'batlantirish manfaatlariga zid ravishda, nisbiy daromad tengligini ta'minlash maqsadida ataylab kamaytirilishi.	Albatta, hozirgi raqobat jarayonida ish haqi tarkibidagi bunday buzilishlarga asta-sekin barham berilmoqda

Inson kapitaliga investitsiyalar, ularning ahamiyatiga qaramay, jadal iqtisodiy o'sish uchun yetarli emas. Fikrimizcha, bunday investitsiyalarga

¹ Muallif ishlanmasi

davlatning rivojlanish strategiyasining ham qoʻshilishi maqsadga muvofiqdir[14].

Quyida, jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, 2010-yildan 2022-yilgacha boʻlgan davrda oliy oʻquv yurtlariga qabul qilinganlar soni 4,6 martaga oshib, 275400 nafarga yetdi. Qabul qilingan talabalar sonining bu darajada oshishi avvalambor, aholining istak-xohishi va talab darajasidan kelib chiqib belgilanganligidir.

Shuningdek, iqtisodiyotning real sektorlarida mavjud ehtiyojdan kelib chiqqan holda joriy oʻquv yilidan boshlab 66 ta zamonaviy taʼlim yoʻnalishi va 48 ta magistratura mutaxassisligi boʻyicha kadrlar tayyorlash yoʻlga qoʻyilishi, 20 ta oliy taʼlim muassasasida 10 ta xorijiy davlatning yetakchi oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlikda 33 ta taʼlim yoʻnalishi va 14 ta mutaxassislik boʻyicha qoʻshma taʼlim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yoʻlga qoʻyilganligidan deb qarash maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

2-jadval
Respublika OTMlarda bilim sohalari boʻyicha bakalavriat yoʻnalishiga talabalar qabuli koʻrsatkichlari, ming kishi²

Oʻquv yili	Jami	Gumanitar soha	Ijtimoiy soha. Iqtisodiyot va huquq	Ishlov berish texnik soha	Qishloq va suv xoʻjaligi	Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot	Xizmatlar sohasi
2010-2011	59,1	6,9	7,1	12,1	4,4	2,2	1,5
2011-2012	60,1	28,5	7,3	12,4	3,9	4,9	2,9
2012-2013	58,3	26,9	5,5	14,3	5,4	3,2	2,9
2013-2014	59,7	27,3	5,2	15,5	5,4	3,0	3,2
2014-2015	62,3	25,8	5,6	18,6	5,5	3,6	3,2
2015-2016	58,3	23,9	5,6	18,6	4,9	2,8	2,5
2016-2017	57,7	23,7	5,4	18,5	4,8	2,8	2,5
2017-2018	80,8	42,9	6,4	19,8	5,4	3,1	3,3
2018-2019	94,0	52,3	7,7	21,6	5,6	3,6	3,3
2019-2020	128,7	62,8	15,8	29,5	6,8	7,0	6,8
2020-2021	165,0	76,5	22,7	37,8	10,6	9,4	6,0
2021-2022	220,1	89,1	42,6	53,3	11,9	12,1	11,1
2022-2023	275,4	106,1	60,9	70,3	11,1	16,3	10,7

Tadqiqot natijalariga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasida bilim sohalari boʻyicha bakalavriat yoʻnalishiga talabalar qabuli koʻrsatkichlari 2022-yilda 2010-yilga nisbatan barcha yoʻnalishlar boʻyicha oʻsgan boʻlib, bu ayniqsa, gumanitar sohada 15,3 barobar, xizmatlar sohasida 7,1 barobar va sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot yoʻnalishida 7,4 barobarga ortgan. Bu esa gumanitar

² Mualliflik ishlanmasi

fanlar, iqtisodiyot, moliya, chet tillari va yangi mehnat bozori talab qiladigan boshqa ko'nikmalar bo'yicha bilimlarni beradigan dasturlarga talab ortishiga hamda yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish lozimligini keltirib chiqardi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ko'plab o'quv muassasalari talabning bunday o'zgarishiga tezkor ravishda javob bermaydilar.

Qabul kvotalari sonining ortishi, albatta, oliy ta'lim muassasalarining soniga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarining 2020-2022 yillardagi soni (oliy harbiy ta'lim tashkilotlaridan tashqari) va hududlarning respublikadagi ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha salmog'ini tahlil qilamiz (3-jadval).

3-jadval


Oliy ta'lim muassasalari soni va hududlarning ulushi³

Hududlar	Soni, birlik		Jamiga nisbatan, %	
	2020/2021	2021/2022	2020/2021	2021/2022
Toshkent sh.	51	67	40,2	43,5
Samarqand	12	14	9,4	9,1
Farg'ona	10	11	7,9	7,1
Qoraqalpog'iston	9	10	7,1	6,5
Andijon	6	8	4,7	5,2
Toshkent v.	8	8	6,3	5,2
Surxondaryo	7	7	5,5	4,5
Buxoro	5	6	3,9	3,9
Qashqadaryo	6	6	4,7	3,9
Xorazm	3	6	2,4	3,9
Jizzax	3	4	2,4	2,6
Namangan	3	3	2,4	1,9
Navoiy	2	2	1,6	1,3
Sirdaryo	2	2	1,6	1,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, so'nggi ikki yil mobaynida oliy ta'lim muassasalari soni sezilarli darajada ortdi. Toshkent shahri ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori o'rinni egallagan. Ushbu hudud respublikadagi oliy ta'lim muassasalari sonining sal kam yarmini tashkil qilgan. 2021-2022 o'quv yili bo'yicha eng past ulush Jizzax (2,6%), Namangan (1,9%), Navoiy (1,3%), Sirdaryo (1,3%) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

2021/2022-o'quv yilida jami 68 ta institut, 78 ta universitet, 8 ta akademiya faoliyat yuritgan. Ularda ta'lim olayotgan va bitirgan talabalar soni ham yillar davomida mos ravishda o'sib kelmoqda (1-rasm). Quyidagi rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2017-2018-o'quv yiliga nisbatan olganda, talabalar soni qariyb 3 martaga ortgan bo'lsa, bitiruvchilar soni 54,1% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

³ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2.1-rasm. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar va bitiruvchilar soni, ming kishi

Ko'pgina davlatlar hukumatlari ta'lim xizmatlarini taqdim etishda tobora ko'proq ishtirok etmoqda. Davlat xarajatlarining YAIMga nisbatan foizdagi tafovuti, turli mamlakatlar hukumatlari tomonidan inson kapitalining milliy zaxirasini oshirish muammosiga har xil ahamiyat berishini aks ettiradi [15]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda hukumatlar 1980 yilga nisbatan o'rtacha daromadning katta qismini ta'limga ajratmoqda. Biroq bu ulush rivojlangan mamlakatlarda ajratilgan miqdordan kam bo'lib, kam daromadli mamlakatlarda - 3,4% va o'rta daromadli mamlakatlarda 4,4%, yuqori daromadli mamlakatlarda 5,6% ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida esa oliy ta'limga davlat byudjetidan 2018-yilda 875,9 milliard so'm ajratilgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 1 trillion 288,4 milliard so'mga yetdi, yoki qariyb 1,5 baravarga ko'paydi hamda 2020-, 2021-, 2022-yillarda ushbu ko'rsatkich mos ravishda 2 trillion 377,6 milliard, 2 trillion 724,0 milliard hamda 3 trillion 771,1 milliard so'm miqdorida mablag' ajratildi. Ko'rinib turibdiki, davlat tomonidan ta'lim tizimiga byudjet xarajatlarining yillar davomida ortib borishi tizimda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning moliyaviy omili bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida davlatning aholi jon boshiga ta'limga sarflaydigan xarajatlarining mutlaq qiymati bo'yicha sezilarli tafovut mavjud. Bu tafovut qashshoqlikning ayanchli aylanishini namoyon etadi. Jumladan, aholi jon boshiga nisbatan kam daromadli odamlarni kapitalga investitsiyalarni ko'paytirish imkonini bermaydi, mehnat unumdorligini va shu tariqa aholi jon boshiga daromadning sezilarli darajada o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Ta'kidlash lozimki, ko'p mamlakatlarda ta'lim uchun sarflanadigan xarajatlarning katta qismi shaxsiy ulushga to'g'ri keladi. Turli mamlakatlarda

ta'lim va davlat xarajatlari o'rtasidagi nisbat bir xil emas va o'rtacha daromad darajasiga bevosita bog'liq bo'lmaydi. Shunday qilib, kam daromadli davlatlar orasida umumiy ta'lim xarajatlarida xususiy sektorning ulushi 20 foizdan (Shri-Lanka) deyarli 60 foizgacha (Uganda va Vetnam), yuqori daromadli davlatlar orasida esa 5 foizdan (Avstriya) 50 foizgacha (Shveytsariya) farq qiladi.

Biroq, ta'kidlash joizki, rivojlangan davlatlar erishgan darajaga yetish uchun hali ancha ishlarni amalga oshirish lozim. Bunday tofovutlar, ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi oliy ma'lumotlilar o'rtasidagi farqlarda namoyon bo'ladi. Chunki, oliy ta'lim muassasasini bitirgan har bir bitiruvchi mutaxassis bo'lib yetadi va u mamlakat iqtisodiyotida o'z o'rnini hamda mavqeiga ega bo'ladi. Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu ma'noda, 2017-yilda respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 77 ta bo'lgan bo'lsa, 2022-yil oxiriga kelib xususiy OTM lar bilan birga 202 taga yetdi, ulardan 33 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari sanaladi. Birgina 2018/2019 o'quv yilida 20 ta oliy ta'lim muassasasida 10 ta xorijiy davlatning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 33 ta ta'lim yo'nalishi va 14 ta mutaxassislik bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarini samaradorligini uning samarali boshqaruvini yanada takomillashtirishni talab etadi. Chunki, mamlakatda aholining oliy ma'lumot olishga bo'lgan qiziqishi, kelgusida yetuk mutaxassis bo'lishi va eng asosiysi kadrlar raqobatbardoshligini oliy o'quv yurtlarining samarali boshqaruvi asosida ta'minlanadi.

Respublikamizning o'rta va oliy o'quv yurtlarida talabalar ulushining oshishi, birinchi navbatda, davlatning ta'limga sarf-xarajatlarining bilan izohlanadi. Mustaqillikning dastlabki o'tish davridagi inqiroz yillarida bu ko'rsatkich 4,1% gacha kamaydi, ammo "Ta'lim to'g'risi"dagi qonunning qabul qilinishi natijasida YaIMning o'sishini hisobga olgan holda o'sishi davom etdi [16].

Talabalar soniga ko'ra ta'lim sifatiga baho berishning iloji yo'qligi aniq, ammo o'qishga kirish ko'rsatkichlari mamlakatning ta'lim sohasidagi nisbiy yutuqlari haqida taxminiy fikrni beradi. Ijobiy iqtisodiy natijalarga erishish uchun ta'lim va kadrlar tayyorlash tarkibi mehnat bozorining doimiy o'zgarib turadigan talablarini qondirishi, bitiruvchilarni mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida eng ko'p talab qilinadigan bilim va

ko'nikmalar bilan ta'minlashi kerak. Masalan, rejalashtirilgan boshqaruv tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar, odatda, rivojlanayotgan xususiy va isloh qilingan davlat sektorida ko'proq iqtisod va biznesni boshqarish bo'yicha mutaxassislar bilan ishlashni talab qiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy "axborot inqilobi" kompyuterlarni yaxshi biladigan mutaxassislarni talab qiladi va iqtisodiy aloqalar "globalashuvi" sababli chet tillarni bilishga, bu orqali xorijiy tajribalarni o'rganishga undaydi. Chunki, yangi bilim hamda ko'nikmalarni tezda o'zlashtira oladigan ishchilar hamma joyda kerak va talabalarda bunday qobiliyatlarni rivojlantirmaydigan ta'lim tizimini samarali deb hisoblash qiyin [17]. Shuni ham ta'kidlash joizki, raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi yondashishga qodir bo'lmagan va asl muammolarni hal qilishga ehtiyoj sezmagani bitiruvchilar ishsizlar va kambag'allar sonini to'ldirishi xavfi yuqori.

Ta'limga sarmoya kiritish mamlakatdagi inson kapitalini oshirish va iqtisodiy o'sish istiqbollari yaxshilashning muhim usuli hisoblanadi. Chunki ta'lim odamlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularga o'zini anglash imkoniyatini beradi va ularning moddiy farovonligi hamda sog'lom turmush tarziga hissa qo'shadi. Shuning uchun mutaxassislarning fikriga ko'ra, aholining savodxonligi va ma'lumot darajasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Inson kapitali nazariyasi har doim ta'limga investitsiyalarning yuqori samaradorligidan kelib chiqqan. Ta'lim orqali odamga sarmoya kiritish samaradorligi bo'yicha olib borilgan barcha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qish davri oshgani sayin mablag'larni ajratish rentabelligi jismoniy kapitalga investitsiyalarning rentabelligidan ancha yuqori bo'ladi. Ushbu xulosalar rivojlangan mamlakatlarda ta'lim va ta'lim sohasining misli ko'rilmagan rivojlanishining nazariy asosi bo'ldi. Ta'lim xarajatlari jamoatchilik fikri bilan endi samarasiz iste'mol xarajati sifatida emas, balki investitsiyalarning eng samarali turlaridan biri sifatida qabul qilinmoqda.

Ta'limning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash uchun asos inson kapitaliga investitsiyalar (ta'lim xarajatlari) ishchining mehnat unumdorligini oshishiga olib keladi va bu, o'z navbatida, yuqori daromad olishni kafolatlaydi. Ta'limning iqtisodiy samaradorligi ta'lim bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri pul daromadlari va uni olish bilan bog'liq xarajatlarning o'zaro bog'liqligi bilan belgilanadi. Ta'limning turli darajalariga qaytishning xususiy va davlat ichki ko'rsatkichlari hisob-kitoblariga asoslangan ta'limga investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashning an'anaviy usullari iqtisodiy adabiyotlarda katta e'tiborga ega bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, ba'zi odamlar ta'limni iste'molchi manbai deb bilishadi, ma'ruzalarda qatnashish va talabalar turmush tarzini yoqtirishadi. Ba'zilar qiziquvchanligini qondirishadi, o'quv jarayonidan zavqlanishadi, boshqalari esa

uzoq muddatli manfaatlar tufayli ta'lim olishga intilishadi. Albatta, qanday bo'lmasin, ta'limning foydasi uzoq vaqt, deyarli umr bo'yi olinishi mumkin. Ammo, kelajakda imtiyozlar bugungi kunda olingan imtiyozlarga qaraganda kamroq bo'lishi mumkin. Birinchidan, daromadni iste'mol qilish uchun sarflasangiz, buni oldinroq qilish tavsiya etiladi. Vaqt o'tishi bilan iste'mol qilish uchun psixologik imtiyoz mavjudligi isbotlangan. Kelgusida zavqlanish hayotning noaniqligi tufayli muammo bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, agar qo'shimcha daromad kelgusida foyda olish uchun jismoniy kapitalga investitsiya sifatida ishlatilsa, uni keyinroq emas, balki tezroq qilish yaxshiroqdir. Shuning uchun, har qanday holatda, kelajakdagi imtiyozlar chegirilishi kerak, bu esa o'z vaqtida bir nuqtaga olib keladi.

Haqiqiy hayotda, hech kim oliy o'quv yurtiga kirishni oliy ma'lumotga qo'yilgan sarmoyalar samaradorligi bo'yicha hisob-kitoblar asosida qabul qilishga qaror qilmaydi. Shunga qaramay, abituriyentlar ma'lum baholardan foydalanadilar (o'zlari, ota-onalari va tanishlari) va o'qishni tugatgandan so'ng qo'shimcha daromad olish imkoniyati hamda buning uchun xarajatlarni to'lash zarurligini hisobga olishadi. Shu sababli, oliy ma'lumotga bo'lgan talab bo'yicha to'rtta taxminni (gepotezani) kiritish mumkin:

hozirgi iste'molga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtiga kirish ehtimoli kelajakdagi daromadga yo'naltirilgan odamlarga qaraganda kam;

aksariyat hollarda yosh o'quvchilar (tayyorgarlik darajasi va kvotalarga nisbatan) talabalar bo'lishadi;

talabalar soni shartnoma qiymatining oshishi bilan kamayadi;

oliy ma'lumotli odamlar va maktab bitiruvchilarining ish haqi o'rtasidagi tafovut oshsa, oliy o'quv yurtlarida talabalar soni ko'payadi.

Ushbu taxminlarni batafsilroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, psixologlar kelajakda o'z harakatlarining yoki qarorlarining oqibatlarini hisoblamaydigan odamlar uchun "hozirgi yo'naltirilgan" atamasini ishlatadilar. Bu odamlar kelajakka mutlaqo e'tibor bermaydilar yoki hisob-kitobdagi o'rtacha foizdan yuqori bo'lgan chegirma stavkasining mavjudligi kelajakdagi daromad (yoki xarajat) smetasini noto'g'ri baholashga olib keladi.

Ta'lim xarajatlari bir xil bo'lsa ham, yoshlarning nafaqa yoshigacha bo'lgan davrning uzoqligi har yili o'qishdan olinadigan qo'shimcha daromad bilan kelajakdagi daromad oqimining qiymati yuqori bo'lishini va shunga mos ravishda ta'limga qilingan investitsiyalarning samaradorligi vaqt o'tishi bilan oshishiga (laglarga nisbatan) olib keladi.

Oliy va o'rta ma'lumotli odamlarning daromadlari tafovutining oshishi bilan ta'limga talab ortib bormoqda. Iqtisodiy nazariyada kutilayotgan foyda ma'lum qarorlarni qabul qilishning asosiy sababi hisoblanadi. Ammo har qanday odamning kelajakdagi daromadini yetarlicha aniqlik bilan oldindan aytish qiyin, bundan tashqari, talabalar kasbni to'g'ri tanlashga va o'quv dasturini

muvaffaqiyatli bajarishga to'liq amin bo'lolmaydilar. Agar oliy va o'rta maktab bitiruvchilarining o'rtacha daromadlaridagi tafovutlar unchalik katta bo'lmasa, unda oliy ma'lumotga talabning pasayishi kutiladi. Agar ushbu tafovutlar kattaroq bo'lsa, unda universitetlarda o'qishni istaganlar sonining ko'payishini kutish mumkin (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari⁴

T/r.	Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2019	2020	2021	2022
1.	Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga qabul qilinganlar soni, ming kishi	41,9	54,2	58,6	58,3	120,4	174,9	235,9	275,5
2.	Oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan mutaxassislar, kishi	31,6	57,8	76,4	66,3	67,2	70,8	103,9	102,3
3.	Faol korxonalar va tashkilotlarning soni (dehqon va fermerxo'jaliklarisiz), ming birlik	108,3	136,5	201,0	246,7	323,5	398,1	475,2	556,8
4.	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashishi (ishga yo'llanma olganlar va mustaqil ishga joylashgan bilan), ming kishi	40,3	48,6	57,0	52,3	57,0	63,0	69,0	75,8
5.	Oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari soni (o'quv yili boshida, kishi)	18,4	23,1	23,0	24,9	30,6	32,1	37,4	41,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2022-yilda 2000-yilga nisbatan O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarining bakalavriatiga qabul qilinganlar soni 6,6 barobar o'sib, 275500 nafarga yetgan, ta'lim muassasalarini tamomlagan mutaxassislar 3,2 barobarga oshib, 102300 nafarni tashkil etdi. Oliy ta'lim muassasalarini samaradorligini va samarali faoliyatini aniqlashda ushbu ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashishi pirovard natija bo'lib, 2022-yilda 2000-yilga nisbatan ularning soni 1,9 martaga oshib, 75800 nafarga yetdi. Bu esa o'z navbatida jami bitiruvchilarning 75,0 foizini qamrab olganligini anglatadi.

Ta'lim olish ayniqsa, uning samaraliligini aniqlash mehnat sharoitlariga, ishsizlikka va boshqalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Oliy ma'lumotga ega bo'lgan odamlar uchun ish sharoitlari umuman qulaydir. Oliy ma'lumotli odamlarga ish

⁴ Jadval www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

topish o'rta ma'lumotlilarga nisbatan osonroq, shuningdek, ular kamroq jismoniy faollikni boshdan kechirishadi, qaror qabul qilishda ko'proq mustaqillikka va kamroq ish tartibiga ega bo'lishadi hamda boshqa odamlar bilan muloqot qilish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasasida ta'lim olishga bo'lgan talabni oshishiga olib keladi va bu iste'molchilar tanlov imkoniyatini (qaysi yo'nalish va qayerda ta'lim olish) kengaytiradi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari faoliyatini taqqoslama tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir (5-jadval).

5-jadval

Buxoro viloyati oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari⁵

T/r.	Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2019	2020	2021	2022
1.	Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga qabul qilinganlar soni, ming kishi	2,8	3,0	3,2	3,1	8,2	11,5	11,6	16,4
2.	Oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan mutaxassislar, kishi	1,4	2,6	4,4	3,3	3,5	4,8	6,2	5,4
3.	Faol korxonalar va tashkilotlarning soni (dehqon va fermerxo'jaliklarisiz), ming birlik	5,7	8,5	12,4	12,1	18,1	23,4	28,2	39,6
4.	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashishi (ishga yo'llanma olganlar va mustaqil ishga joylashgan bilan), ming kishi	0,6	1,5	3,6	2,8	3,4	4,8	5,2	4,6
5.	Oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari soni (o'quv yili boshida, kishi)	894	1188	1254	1186	1615	1901	2056	2821

⁵ www.stat.uzrasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Buxoro viloyati oliy ta'lim muassasalarining bakalvriyat yo'nalishiga qabul qilinganlar soni 2022-yilda 2000-yilga nisbatan 5,8 barobar oshib, 16400 kishiga yetdi. Bu o'z navbatida ushbu ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni ham mos ravishda 3,8 barobarga o'sib, 5400 kishiga yetishini ta'minlandi.

Oliy ta'lim muassasalariga kvotalarni oshishi albatta, ularga samarali ta'lim berish shart-sharoitlari bilan ta'minlashni taqazo etadi. Bu borada birinchi navbatda o'qituvchi-professorlar sonini ta'minlanganligiga e'tibor qaratilib, Buxoro viloyati oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar sonini 2022-yilda 2000-yilga nisbatan 3,1 barobarga oshib, 2821 nafarga o'zgarishiga olib keldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda Buxoro viloyati oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilar soniga nisbatan 85,1 foizi ya'ni, 4600 nafari ishga joylashgan. Hududlar oliy ta'lim muassasalari samaradorligini aniqlashda taqqoslama usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, buning uchun Navoiy viloyati oliy o'quv yurtlari faoliyati tahlilini amalga oshiramiz (6-jadval).

6-jadval

Navoiy viloyati oliy o'quv muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari⁶

T/r.	Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2019	2020	2021	2022
1.	Oliy ta'lim muassasalarining bakalvriyatiga qabul qilinganlar soni, ming kishi	0,6	1,8	2,0	2,0	4,0	5,5	5,6	9,4
2.	Oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan mutaxassislar, kishi	956	1779	3088	2166	2339	3152	3963	3894
3.	Faol korxonalar va tashkilotlarning soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz), ming birlik	3,2	4,3	7,0	8,5	17,1	20,1	22,7	24,6
4.	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashishi (ishga yo'llanma olganlar va mustaqil ishga joylashgan bilan), ming kishi	0,4	1,2	2,2	1,6	1,7	2,1	2,5	2,6
5.	Oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari soni (o'quv yili boshida, kishi)	0,4	0,5	0,6	0,7	0,7	0,7	0,7	0,9

⁶ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Navoiy viloyati oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat yo'nalishiga qabul qilinganlar soni 2022-yilda 2000-yilga nisbatan 15,6 barobar oshgan(8800 nafar) va oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan talabalar soni 2022-yilda 2000-yilga nisbatan 4,1 barobar oshgan(2938 nafar). Ushbu bitiruvchilarning 2000-yilda bitiruvchilarga nisbatan 41,0 foizi ishga joylashgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 66,7 foizga yetdi.

Ushbu oliy o'quv yurtlarini bitiruvchilarga nisbatan ishga joylashganlar bo'yicha taqqoslaydigan bo'lsak, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning 75,0 %ini, Buxoro oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining 85,1 %ini va Navoiy oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini 66,7 %ini qamrab olganligini ko'rish mumkin. Albatta, bunda ushbu viloyatlardagi faoliyat ko'rsatayotgan faol korxonalar va tashkilotlarning soniga ham e'tibor qaratish lozim bo'lib, 2022-yilda Buxoro viloyatida Navoiy viloyatiga nisbatan korxonalar soni 1,6 barobar (15,0 ming birlikka) ko'p. Ammo, tahlillarimiz Buxoro viloyati oliy o'quv yurtlari faoliyati samaradorligini yuqori ekanini anglatib, fikrimizcha, bu borada oliy ta'lim muassasalari tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishda o'quv bo'limi, ilmiy va innovatsion faoliyat, metodologik faoliyat va inson resurslarini boshqarish, moliya-xo'jalik faoliyatiga tegishli komponentlarni inobatga olish, OTMlarning tadbirkorlik muhiti, tadbirkorlik falsafasi va missiyasidan kelib chiqib, tadbirkorlik strategiyasini ishlab chiqish, OTMlarning boshqaruv tizimiga bevosita ta'sir etuvchi global va milliy tendentsiyalarni o'rganish, OTMlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish va ularning profiliga mos keladigan yirik korxonalar bilan integratsiyasini samarali yo'lga qo'yish, shuningdek, ta'limni rivojlantirish korxonalar ijtimoiy mas'uliyatining asosiy yo'nalishi bo'lishiga erishish, raqamli texnologiyalarning OTMlar faoliyatiga kirib borishini kuchaytirish va boshqaruv strategiyasining asosiy vazifasidan biri bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi:

Shuningdek, OTMlarining strategik rivojlanishini boshqarish muammolariga quyidagilar kiradi:

strategik maqsadning haddan tashqari global xarakterga egaligi;

strategiyani amalga oshirish uchun moliyaviy, kadrlar, moddiy va axborot bazasining yetarli emasligi;

zarur tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarining yetarli emasligi;

OTM boshqaruvida strategik va tezkor (operativ) jihatlarining o'zaro bog'liqligi mexanizmining mavjud emasligi va boshqalar.

OTM faoliyatining rivojlanishiga qaratilgan strategik dasturlar mazmunini strategiyalar turlari va ularga ta'sir etuvchi omillar (ta'lim sohasidagi davlat

siyosati, ta'lim xizmatlariga talab, raqobat darajasi, geografik joylashuv, hajmi, rivojlanish bosqichi, mulkchilik shakli, profili va boshqa ustunliklari) asosida shakllantirish, unda nazarda tutilgan loyihalar va tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari, tegishli muddatlar va mas'ullarini aniq belgilagan holda ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral *"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"*gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/acts/-3107036>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar *"2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"*gi PF-60-son Farmoni. <http://www.lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr *"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"*gi PF-5847-son Farmoni. <http://www.lex.uz>
4. M.L. Sharipov, N.M. Koshanova. Inson kapitali mohiyati, uning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Academic research in educational sciences. Volume2. ISSUE 4. 2021.
5. К. Шерам, Т. Субботиной, В.Автономова. Мир и Россия: Материал для размышлений и дискуссий. - М.: Изд-во «Экономическая школа», 2000. – С. 167.
6. G.U. Radjabova. Increasing the competitiveness of universities in the market of educational services. International journal of innovations in engineering research and technology. volume 9, ISSUE 11, Nov.2022. – 269 p.
7. O.Kvachenko. The Simulation of the University's Strategic Development. Add Paper to library. 20.05.2020. – 404 p.
8. B.Kattakishiyev, I.Mamayusupov. Strategik menejment. Praktikum. – T.: 2008. 4-6 b.
9. Адамкулова Ч.У. Оценка экономической эффективности деятельности ВУЗа в совершенствовании механизма управления. Том 21, №6, 2017. 41-43 с.
10. Yu.R. Tursunboyeva. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish masalalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. June 2021. Volume 1. ISSUE 5. 253-255 p.
11. R.D. Norqobilova, Sh.A.Abdullayeva. Diagnostika pedagogik muammo sifatida. International Scientific and Practical Conference. Volume 4. May 6. 2023. – 226-227 p.

12. X.X.Rejapov. Mehnat bozori talablariga oliy ta'lim xizmatlari modellarini moslashtirish // *"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"* ilmiy-elektron jurnali. 4/2022, iyul-avgust. №00060. – 137-139 b.

13. A.Vaxobov, A.Ibrohimov, B.Xakimov. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2003. –13-16 b.

14. O.A. Aripov. Inson kapitalini rivojlanishiga doir mulohazalar// International scientific journal volume 1. Issue 3. Interpretation and researches. 2020. –13-15 b.

15. N.R. Aliev. Ta'lim xizmatlari marketingining o'ziga xos xususiyatlari. Scientific progress. Volume 3. ISSUE 2. 2022. –267-269 p.

16. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 19-maydagi *"Ta'lim to'g'risida"*gi O'RQ-637-son Qonuni.

17. <https://uz.atomiyme.com/axborot-inqilobi-jarayonida-uning-rol-nima-deb/>